TSUE

YASHIL

YIT
Yashil iqtisodiyot&taraqqiyot
ilmiy-elektron jurnal

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (2)

Google Scholar · OPEN ACCESS · ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY · OpenAIRE · ROAD · НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU · Academic Resource Index ResearchBib · ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE · CYBERLENINKA · BASE · INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL · Crossref

ISSN: 2992-8982
https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/
2026

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 2026-yil, may.
2-qism

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay’ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G‘afforovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko‘nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o‘g‘li, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig‘i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o‘rinbosari
Ochilov Farkhod, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig‘i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li, TDIU katta o‘qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra’no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:
Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
G‘afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o‘qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:
Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘NALISHLARI 12
Xudoyberdiyev Ulug‘bek Axmad o‘g‘li

O‘ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH 16
Shermuxamedov Akmal Komiljonovich

РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА 21
Салимова Зиёда Рустамжон қизи

ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO‘QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQISH 27
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o‘g‘li

RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO‘RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH 32
Azlarova Aziza Axrorovna

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 36
Soyibova Matluba Ahmedboyevna

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI 41
M.O. Yo‘ldoshova

NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH 45
Anvar Deberdiyev

SOLIQ MA‘MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO‘LAMINI QISQARTIRISH YO‘LLARI 49
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

SOLIQ MA‘MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO‘LAMINI QISQARTIRISH YO‘LLARI

Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0007-0188-6877
E-mail: mamatqulov.salim.1983@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyot ko‘lamini qisqartirishga qaratilgan soliq ma‘murchiligini takomillashtirish bo‘yicha uchta o‘zaro bog‘liq ilmiy yangilik tahlil qilinadi. Birinchi yangilik majburiy raqamli markirovka tizimini onlayn nazorat-kassa texnikasi (ONKT) bilan integratsiya qilish, Soliq qo‘mitasi tarkibida hududlararo inspeksiya tashkil etish va masofaviy soliq tekshiruvini joriy etishni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi yangilik yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT) hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun yillik aylanmasi 1,0 mlrd so‘mgacha bo‘lgan subyektlarga 1 foizlik aylanmadan olinadigan soliq (AOS) stavkasini belgilash, shuningdek, raqamli platformalar orqali to‘lovlarni qabul qilishda maxsus QR-kod mavjudligini majburiy talab sifatida joriy etishni қамраб олади. Uchinchi yangilik AOS to‘lovchilarining qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) tizimiga o‘tishini rag‘batlantirish мақсадида бир йиллик foyda solig‘idan ozod etish, jarimalardan muvaqqat ozod qilish hamda buxgalteriya xarajatlarini soliqdan chegirib tashlash kabi imtiyozlar majmuasini joriy etishдан iborat. Empirik tahlil Soliq qo‘mitasining 2020–2026-yillar ma‘lumotlari asosida amalga oshirilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, мазкур uchta yangilik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari asosida amaliyotga joriy etilgan bo‘lib, soliq bazasini kengaytirish, yashirin realizatsiyani qisqartirish va budjet tushumlarini oshirishда sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Kalit so‘zlar: yashirin iqtisodiyot, soliq ma‘murchiligi, raqamli markirovka, onlayn nazorat-kassa texnikasi (ONKT), yakka tartibdagi tadbirkor (YATT), aylanmadan olinadigan soliq (AOS), qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS), rag‘batlantirish choralari, masofaviy soliq tekshiruvi.

Abstract. This article analyzes three interrelated scientific innovations aimed at improving tax administration in order to reduce the scale of the shadow economy in Uzbekistan. The first innovation includes the integration of the mandatory digital labeling system with online cash register equipment (OCRT), the establishment of an interregional inspection within the structure of the Tax Committee, and the introduction of remote tax audits. The second innovation involves introducing a 1 percent turnover tax (TT) rate for individual entrepreneurs and self-employed persons with an annual turnover of up to 1.0 billion UZS, as well as making the presence of a special QR code mandatory when accepting payments through digital platforms. The third innovation consists of implementing a package of incentives to encourage turnover tax payers to transition to the value-added tax (VAT) system, including exemption from profit tax for one year, temporary exemption from penalties, and deduction of accounting expenses from taxable income. The empirical analysis is based on data from the Tax Committee for the years 2020–2026. The findings indicate that all three innovations have been implemented through the relevant resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan and are having a significant positive impact on expanding the tax base, reducing hidden sales, and increasing budget revenues.

Key words: shadow economy, tax administration, digital labeling, online cash register equipment (OCRT), individual entrepreneur, turnover tax (TT), value-added tax (VAT), incentive measures, remote tax audit.

Аннотация. В данной статье анализируются три взаимосвязанных научных нововведения, направленных на совершенствование налогового администрирования с целью сокращения масштабов теневой экономики в Узбекистане. Первое нововведение включает интеграцию системы обязательной цифровой маркировки с онлайн-контрольно-кассовой техникой (ОНКТ), создание межрегиональной инспекции в структуре Налогового комитета и внедрение дистанционной налоговой проверки. Второе нововведение предусматривает установление ставки налога с оборота (НСО) в размере 1 процента для индивидуальных предпринимателей и самозанятых лиц с

годовым оборотом до 1,0 млрд сумов, а также введение обязательного требования наличия специального QR-кода при приёме платежей через цифровые платформы. Третье нововведение связано с внедрением комплекса льгот для стимулирования перехода плательщиков НСО на систему налога на добавленную стоимость (НДС), включая освобождение от налога на прибыль сроком на один год, временное освобождение от штрафов и вычет бухгалтерских расходов из налогооблагаемой базы. Эмпирический анализ проведён на основе данных Налогового комитета за 2020–2026 годы. Результаты показывают, что все три нововведения были внедрены в практику на основании соответствующих решений Президента Республики Узбекистан и оказывают значительное положительное влияние на расширение налоговой базы, сокращение теневой реализации и увеличение бюджетных поступлений.

Ключевые слова: теневая экономика, налоговое администрирование, цифровая маркировка, онлайн-контрольно-кассовая техника (ОНКТ), индивидуальный предприниматель, налог с оборота (НСО), налог на добавленную стоимость (НДС), меры стимулирования, дистанционная налоговая проверка.

KIRISH

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish jahon iqtisodiyoti, shu jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ustuvor fiskal muammo bo‘lib qolmoqda. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) ma’lumotlariga ko‘ra, yashirin iqtisodiyot ulushi rivojlanayotgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning (YaIM) o‘rtacha 25–35 foizini tashkil etadi, bu esa davlat budjetlarining soliq daromadlarida yirik hajmdagi yo‘qotishlarga olib keladi (Medina & Schneider, 2018). Soliq ma’murchiligini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish esa yashirin aylanmalarni qisqartirishning isbotlangan yo‘li sifatida keng tan olingan.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda soliq islohotlari intensiv sur’atlarda amalga oshirilmoqda. Elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat-kassa texnikasi va raqamli markirovka tizimlari joriy etilishi bilan birga, soliq solish bazasini kengaytirish hamda yashirin iqtisodiyotni jilovlash bo‘yicha muhim institutsional choralar ko‘rilmoqda. Biroq tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, norasmiy iqtisodiy munosabatlar ayrim tarmoqlar va subyektlar qatlamida — xususan, mayda savdogarlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar orasida — saqlanib qolmoqda (Giyosov, 2024).

Mavjud adabiyotlarda raqamli markirovka tizimlarining soliq bazasiga ta’siri (Monteiro & Assunção, 2009; Aghion et al., 2016), kichik biznesda soliq yuki va norasmiylashuv o‘rtasidagi bog‘liqlik (Schneider & Buehn, 2018) hamda rag‘batlantirish choralari orqali soliq muvofiqligini oshirish (Alm et al., 1992) tadqiq etilgan. Biroq Markaziy Osiyo kontekstida, xususan O‘zbekistonda, uchta o‘zaro bog‘liq instrument — raqamli markirovka nazorati, kichik biznes uchun soddalashtirilgan soliq rejimi va QQSga o‘tish rag‘batlantirishlari — ning birgalikdagi ta’siri empirik jihatdan yetarlicha o‘rganilmagan. Ushbu bo‘shliqni to‘ldirish mazkur maqolaning asosiy maqsadini belgilaydi.

Maqolaning maqsadi: Birinchidan, majburiy raqamli markirovka tizimini ONKT bilan integratsiya qilish va masofaviy nazoratni joriy etish;

Ikkinchidan, YATT va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun 1 foizlik AOS stavkasini hamda majburiy QR-kod tizimini joriy etish;

Uchinchidan, AOS to‘lovchilarining QQSga o‘tishini rag‘batlantirish mexanizmlari bo‘yicha ilmiy takliflarni baholash hamda ularning budjet va iqtisodiy samaradorligini tahlil qilishdan iborat. Mazkur uchta taklif muallif tomonidan dissertatsiya doirasida ishlab chiqilgan bo‘lib, tegishli davlat qarorlari orqali amaliyotga joriy etilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashirin iqtisodiyotni o‘lchash va uning omillarini aniqlashga bag‘ishlangan muhim nazariy asos Schneider va Buehn (2018), Feige (1979) hamda Lippert va Walker (1997) ishlarida yaratilgan. Mazhar va Méon (2017) soliq yukining oshishi yashirin iqtisodiyotni kengaytirishga olib kelishini empirik jihatdan isbotlagan. Dreher va Schneider (2010) esa korrupsiya va soya iqtisodiyoti o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatib bergan.

Raqamli texnologiyalarning soliq ma’murchiligidagi roli tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Monteiro va Assunção (2009) Braziliya tajribasi asosida byurokratik soddalashtirish hamda soliq yukini kamaytirish norasmiy sektordagi subyektlarning rasmiy iqtisodiyotga chiqishini sezilarli darajada rag‘batlantirishini ko‘rsatgan. Aghion va boshqalar (2016) esa soliq yuki, korrupsiya va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi aloqani tadqiq qilib, past soliq stavkalari iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishi va soliq bazasini kengaytirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi.

O‘zbekiston kontekstida Niyazmetov (2016) soliq yukini optimallashtirish bo‘yicha nazariy-uslubiy asosni ishlab chiqqan. Giyosov (2024) yashirin daromadlar ko‘lamini qisqartirishda soliq ma’murchiligining konseptual asoslarini tahlil qilib, raqamlashtirish va rag‘batlantirish choralarining kombinatsiyasi eng yuqori samara berishini asoslagan. Toshmatov (2022) esa raqamli iqtisodiyotning budjet daromadlari manbalari kengayishiga ta’sirini o‘rgangan.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar raqamlashtirishning ijobiy ta'sirini umumiy darajada isbotlagan bo'lsa-da, O'zbekistonda majburiy markirovka, kichik biznes uchun soddalashtirilgan soliq rejimi hamda QQSga o'tish rag'batlantirishlarining birgalikdagi empirik baholanishi ilmiy tadqiqot bo'shlig'i bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot empirik ma'lumotlar tahlili, siyosat baholash hamda qiyosiy iqtisodiy tahlil metodologiyasiga asoslanadi. Birlamchi ma'lumot manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2020–2026-yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlari, hududlar kesimidagi YATT soni va soliq tushumlari, raqamli markirovka tizimida qayd etilgan operatsiyalar hamda moliyaviy jarimalar bazasi foydalanilgan.

Tahlil metodlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: (1) dinamik qiyosiy tahlil — vaqt kesimida ko'rsatkichlar o'zgarishini kuzatish; (2) hududlararo solishtirish — iqtisodiy geografiya va soliq ma'murchiligi ko'rsatkichlarini hududlar bo'yicha taqqoslash; (3) siyosat hodisasi tahlili — qarorlar kuchga kirgunga qadar va undan keyingi davrlar ko'rsatkichlarini solishtirish; (4) normativ-huquqiy tahlil — tegishli Prezident qarorlari va Soliq kodeksining tegishli moddalari o'rganish orqali tahlil qilish.

Qiyosiy asos sifatida Angliya, Fransiya, Germaniya, Belgiya kabi rivojlangan davlatlar hamda Braziliya tajribasi o'rganilgan. Ma'lumotlarning ishonchliligi Soliq qo'mitasining rasmiy ma'lumotnomasi (30/3-108069-son, 23.09.2025) bilan tasdiqlangan. Tadqiqot uch yangilik bo'yicha alohida-alohida, biroq o'zaro bog'liq tahlil olib boradi, so'ngra ularning kombinatsiyalangan samarasi baholanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Majburiy raqamli markirovka tizimini takomillashtirish va masofaviy nazoratni joriy etish

Raqamli markirovka tizimi tovar harakatini ishlab chiqarishdan tortib chakana realizatsiyagacha yagona axborot muhitida kuzatish imkonini beradi. O'zbekistonda 2021-yildan boshlab bosqichma-bosqich joriy etilayotgan majburiy raqamli markirovka tizimi quyidagi tovar guruhlarini qamrab oladi: tamaki va alkogol mahsulotlari (2021-yil yanvar), pivo mahsulotlari (2021-yil aprel), maishiy texnika va dori vositalari (2022-yil), suv hamda salqin ichimliklar (2024-yil mart).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli markirovka tizimida chakana savdo bosqichida eng ko'p ishtirokchilar qayd etilgan. Alkogol mahsulotlari bo'yicha 10 696 ta, maishiy texnika bo'yicha 89 898 ta chakana savdo nuqtasi tizimda ro'yxatdan o'tgan. Bu holat nazorat qamrovining keng ekanligini ko'rsatadi, biroq ayni paytda kuzatuv mexanizmlarining samarali ishlashini ta'minlash muhimligini ham anglatadi (1-jadval).

1-jadval. Majburiy raqamli markirovkalanadigan mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilari soni[1]

byudjet	Ishlab chiqarish	Importyor	Ulgurji savdo	Chakana savdo
Tamaki mahsulotlari	20	79	124	10 274
Alkogol mahsulotlari	70	77	379	10 696
Pivo mahsulotlari	47	43	768	8 888
Maishiy texnika	307	1943	601	89 898
Dori vositalari va tibbiy buyumlar	368	922	1006	10 696
Suv va salqin ichimliklar	270	363	33	13 922

Amaliy tahlil ko'rsatdiki, raqamli markirovka joriy etilganiga qaramasdan, ayrim hollarda: (a) markirovka kodisiz yoki avval foydalanilgan kodlar orqali realizatsiya qilish; (b) ONKT orqali chek shakllantirishda qoidabuzarliklarga yo'l qo'yish holatlari uchrab turmoqda. Bu holat, ayniqsa, alkogol va tamaki mahsulotlari segmentida keng tarqalgan bo'lib, 2022-yilda mos ravishda 165,5 mlrd so'm va 12,3 mlrd so'm miqdorida moliyaviy jarimalar qo'llanilishiga sabab bo'lgan (2-jadval).

1 Manba: O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-jadval. 2022–2024-yillarda raqamli markirovka qoidalari buzilishi uchun qo‘llanilgan moliyaviy jarimalar (mlrd. so‘m)[2]

Mahsulot guruhi	2022-y. (mlrd. so‘m)	2023-y. (mlrd. so‘m)	2024-y. (mlrd. so‘m)
Tamaki mahsulotlari	12,3	0,6	0,2
Alkogol mahsulotlari	165,5	201,4	1,1
Pivo mahsulotlari	0,8	0,0	0,0
Maishiy texnika	0,0	0,0	0,6
Dori vositalari va tibbiy buyumlar	0,0	0,0	0,9
Suv va salqin ichimliklar	0,0	0,0	0,0

Alkogol bo‘yicha jarimalarning 2024-yilda 1,1 mlrd so‘mgacha pasayishi qoidabuzarliklarning kamaygani yoki nazoratning kuchayishi natijasida tartib-intizomning yaxshilangani bilan izohlanadi. Shu asosda quyidagi uch yo‘nalishli taklif ishlab chiqildi va asoslandi:

– Soliq qo‘mitasi tuzilmasida raqamli markirovka qoidalariga rioya etilishini nazorat qiluvchi hududlararo soliq inspeksiyasini tashkil etish;

– Majburiy raqamli markirovkalanadigan mahsulotlarni chakana realizatsiya qilishda faqat amaldagi (avval ishlatilmagan) markirovka kodi kiritilgandan keyingina ONKT tomonidan kassa cheki shakllantirilishi; avval foydalanilgan kodlar kiritilganda esa chek berilishi avtomatik ravishda bloklanishi;

– Raqamli markirovka qoidalarini buzish holatlarini aniqlashda soliq organlarining axborot tizimlari orqali masofaviy soliq tekshiruvini joriy etish.

Ushbu taklif O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-maydagi PQ-190-son “Majburiy raqamli markirovkalash tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan amaliyotga joriy etildi. ONKT soni dinamikasi ham ijobiy tendensiyani ko‘rsatmoqda. 2019–2025-yillar davomida ushbu ko‘rsatkich barqaror o‘sish yo‘nalishida bo‘lgan. Chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sektorida ONKT orqali realizatsiya qilingan savdo hajmi 2024–2025-yillarda inflyatsiya sur’atidan yuqori tezlikda o‘sganligi raqamlashtirish choralarining real ta’siridan dalolat beradi.

O‘zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT) va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar kichik biznesning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. 2025-yil holatiga ko‘ra, YATT soni Toshkent shahri, Samarqand, Farg‘ona, Toshkent viloyati va Andijon viloyatida eng yuqori ko‘rsatkichga ega. Hududiy konsentratsiyaning yuqori bo‘lishi ushbu segmentda soliq ma’murchiligi mexanizmlarini aniq maqsadli yo‘naltirish imkonini beradi.

Amaldagi tartibda qat’iy belgilangan miqdorda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (JSHDS) to‘lash tartibi hamda realizatsiyadan daromadi 100 mln so‘mdan oshmagan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning AOSdan ozod etilishi amalda aylanmani sun’iy ravishda chegarada ushlab turish, ya’ni real aylanmani yashirish uchun iqtisodiy rag‘bat yaratishi mumkinligi aniqlanadi. Chunki 100 mln so‘m chegarasidan oshishi soliq yukining oshishiga olib keladi va bu holat norasmiy aylanmaga yo‘l ochadi.

Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida quyidagi yangiliklar asoslandi:

– YATT va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun qat’iy miqdordagi JSHDS to‘lash tartibi hamda 100 mln so‘mlik AOSdan ozod etish tartibini bekor qilish;

– Yillik aylanmasi 1,0 mlrd so‘mgacha bo‘lgan YATT va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun AOS stavkasini 1 foiz miqdorida belgilash;

– Raqamli platformalarda generatsiya qilingan elektron to‘lovlarni qabul qiluvchi maxsus QR kod mavjudligini chakana savdoning majburiy talabi sifatida belgilash;

– Maxsus QR kod mavjud emasligini ONKTni qo‘llamaslik holatiga tenglashtirish.

Taxminiy iqtisodiy mantiq quyidagicha: soliq yuki past (1%) bo‘lgan sharoitda subyektlar aylanmani yashirishdan oladigan iqtisodiy manfaat kamayadi, aksincha faoliyatni rasmiylashtirish foydaliroq bo‘lib qoladi. QR kod esa to‘lovlarni avtomatik identifikatsiya qilish va operatsiyalarni ONKT bilan real vaqt rejimida bog‘lash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Prognoz hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, barcha hududlarda 2026-yil uchun kutilgan YATT bo‘yicha soliq tushumlari 2025-yilgi ko‘rsatkichlarga nisbatan yuqori bo‘ladi. Toshkent shahrida bu o‘sish ayniqsa sezilarli bo‘lib, 1% AOS rejimi va majburiy QR kod tizimining kombinatsiyasi yashirin realizatsiyani qisqartirish hamda soliq bazasini kengaytirish uchun samarali vosita ekanini tasdiqlaydi. Ushbu taklif O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-avgustdagi PQ-247-son qarori bilan amaliyotga joriy etildi.

2 Manba: O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Soliq tizimida QQSga o‘tish iqtisodiy subyektlarning hisobdorligini oshirish, shuningdek, qayta ishlov sanoatida kirish va chiqish QQS zanjirini to‘g‘ri shakllantirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq amaliy kuzatuv shuni ko‘rsatdiki, AOS to‘lovchilari ichida QQSga o‘tgan subyektlar ulushi atigi 1,4 foizni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich o‘tishdagi to‘siqlar — buxgalteriya xarajatlari, moslashish muddati va moliyaviy jarimalar xavfi — sababli QQSga o‘tishdan qochish holatlari mavjudligini ko‘rsatadi.

Ushbu muammoni hal qilish maqsadida quyidagi rag‘batlantirish choralari majmuasi ishlab chiqildi va asoslandi:

– AOSdan ilk bor QQSga o‘tgan tadbirkorlik subyektlarini bir yil davomida foyda solig‘idan ozod etish;

– QQS to‘lovchisi sifatida soliq organlarida hisobga qo‘yish tartibini buzganlik uchun moliyaviy jarimalarni 6 oy davomida qo‘llamaslik;

– O‘tish davrida buxgalteriya xizmatlari xarajatlarining har oyda mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 3,5 baravaridan oshmagan qismini soliqlardan chegirib tashlash huquqini berish;

– Jismoniy shaxslardan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari naqd pulga xarid qilinganda, barcha tadbirkorlik subyektlari uchun ushbu tovarlar bo‘yicha kirim hujjatlarini elektron shaklda rasmiylashtirishni joriy etish.

Empirik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, buxgalteriya xarajatlarini chegirib tashlash bo‘yicha hududlar kesimida Toshkent shahri birinchi o‘rinda (11,3 mlrd so‘m), undan keyin Toshkent viloyati (7,5 mlrd so‘m) va Farg‘ona viloyati (6,6 mlrd so‘m) turadi. Jismoniy shaxslardan naqd pulga xarid qilingan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bo‘yicha elektron rasmiylashtirish hajmi 2025-yilda 5558,7 mlrd so‘mdan 2026-yil 1-aprel holatiga ko‘ra 6226,6 mlrd so‘mga yetib, 12% o‘sishni ko‘rsatgan.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, QQSga o‘tish sur’ati hali ham past (1,4%), biroq rag‘batlantirish choralari joriy etilgan davrda aylanma soliq to‘lovchilari soni va tovar aylanmasi oshgan, tadbirkorlar ishonchi kuchaygan. Hududlar tahlili QQSga o‘tish ko‘rsatkichlari Toshkent shahri, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida yuqori, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida esa past ekanini ko‘rsatadi, bu esa maqsadli tushuntirish ishlarini kuchaytirish zarurligini bildiradi. Ushbu taklif O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-avgustdagi PQ-138-son qarori bilan amaliyotga joriy etildi.

Uchta yangilik o‘zaro tizimli sinergiyaga ega. Raqamli markirovka tizimi ONKT bilan integratsiyalashuvi shaffoflikni oshiradi, 1% AOS kichik subyektlar uchun rasmiylashuvni rag‘batlantiradi, QQSga o‘tishdagi imtiyozlar esa yuqori bosqichga chiqish to‘siqlarini kamaytiradi.

Xulosa va takliflar

Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga qaratilgan uchta o‘zaro bog‘liq soliq ma‘murchiligi innovatsiyasini empirik jihatdan tahlil qildi. Asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

– Raqamli markirovka tizimini ONKT bilan integratsiya qilish, hududlararo inspeksiya tashkil etish va masofaviy soliq tekshiruvini joriy etish tovar aylanmasi shaffofligini oshirgan hamda yuqori riskli mahsulot guruhlarida (alkogol, tamaki) qoidabuzarliklarni keskin kamaytirgan.

– YATT va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun 1% AOS stavkasi hamda majburiy QR kod talabi aylanmalarni rasmiylashtirish rag‘batini kuchaytirgan, hamda hududlar kesimida 2026-yil uchun prognoz qilingan soliq tushumlari sezilarli o‘sishni ko‘rsatmoqda.

– AOS dan QQS ga o‘tishda rag‘batlantirish choralari majmuasi tadbirkorlar ishonchini mustahkamlagan. Elektron hujjatlashtirish hajmi 2026-yil boshiga kelib 12% ga oshgan va buxgalteriya chegirma mexanizmi ayniqsa Toshkent shahri va yirik viloyatlarda samarali ishlagan.

Uchala yangilik ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari (PQ-190, PQ-247, PQ-138) bilan amaliyotga kiritilgan bo‘lib, bu ularning amaliyotda tan olinishini va milliy soliq islohotlarining muhim komponenti sifatidagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Kelgusidagi tadqiqotlarga tavsiyalar:

– Uzun davr dinamikasini kuzatish (2026–2028-yillar ma’lumotlari asosida);

– Xorazm va Sirdaryo kabi past ko‘rsatkichli hududlarda sifatli tadqiqot o‘tkazish;

– Sohaviy tahlilni (savdo, ishlab chiqarish, xizmatlar kesimida samaradorlikni qiyoslash) amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Aghion, P., Akcigit, U., Cage, J., & Kerr, W. R. (2016). Taxation, corruption, and growth. European Economic Review, 86, 24–51.
2. Alm, J., McClelland, G. H., & Schulze, W. D. (1992). Why do people pay taxes? Journal of Public Economics, 48, 21–48.
3. Dreher, A., & Schneider, F. (2010). Corruption and the shadow economy: An empirical analysis. Public Choice, 144(1–2), 215–238.
4. Feige, E. L. (1979). How big is the irregular economy? Challenge, 22(5), 5–13.

5. Giyosov, A. A. (2024). Yashirin daromadlar ko‘lamini qisqartirishda soliq ma’murchiligining konseptual asoslarini takomillashtirish. Toshkent: Dissertatsiya.
6. Lippert, O., & Walker, M. (1997). The Underground Economy: Global Evidence of Its Size and Impact. Vancouver: The Fraser Institute.
7. Mazhar, U., & Meon, P. G. (2017). Taxing the unobservable: The impact of the shadow economy on inflation and taxation. World Development, 90, 89–103.
8. Medina, L., & Schneider, F. (2018). Shadow economies around the world: What did we learn over the last 20 years? IMF Working Paper, WP/18/17.
9. Monteiro, J., & Assunção, J. (2009). Outgoing the shadows: Estimating the impact of bureaucracy simplification and tax cuts on formality and investment. Journal of Development Economics, 99(1), 105–115.
10. Niyazmetov, I. M. (2016). Soliq yukini optimallashtirish: nazariya, uslubiyat va amaliyot. Toshkent: Moliya.
11. Schneider, F., & Buehn, A. (2018). Shadow economy: Estimation methods, problems, results and open questions. Open Economics, 1(1), 1–29.
12. Toshmatov, Sh. A. (2022). Iqtisodiyotni raqamlashtirishning “yashil iqtisodiyot” bilan uyg‘unligi. Davlat boshqaruvi akademiyasi ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, Toshkent.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-maydagi “Majburiy raqamli markirovkalash tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-190-son qarori. https://lex.uz/docs/-7540338
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-avgustdagi “Yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-247-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-7681520
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan V ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-138-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-7696559
16. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (2019). Toshkent.

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz